

“Immunodietologiya-yangi sifatli hayot sari yo`l!” mavzusida ilmiy-amaliy seminari

O`zbekiston Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti tomonidan 18-oktyabr kuni “Immunodietologiya-yangi sifatli hayot sari yo`l!” mavzusida ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi. Ushbu immunodietologiyaga oid yangi qarashlar, ilmiy yangiliklarga boy seminar AQSh ning “ImmunoHealth Inc.” kompaniyasi bilan hamkorlikda o`tkazildi.





"Immunodietologiya zamonaviy dietologiyaning istiqbolli yo`nalishi bo`lib, unda organizimning immun tizimining o`ziga xos oziq-ovqat antigenlariga reaksiyalari jismoniy jihatdan to`g`ri hisobga olinadi". Bo`lib o`tgan ilmiy-amaliy seminarda soha mutaxassislari bugungi kun uchun dolzarb bo`lgan immun tizimi mustahkamlash yo`lida insoniyatni oziq-ovqat iste'moli naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashdi. Seminarda ushbu yo`nalishda ilmiy izlanishlar qilayotgan mutaxassislar o`zaro fikr-mulohaza almashishdi. Seminar yakunida ishtirokchilar Sertifikat bilan taqdirlandi.